

TRANSPORT XIZMATI

Yuk tashish. 2018 yil yanvar-sentyabrda barcha transport turlari tomonidan 32,9 mln. tonna yuk tashilgan bo'lib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,5 foizga ko'paydi.

Yuk aylanmasi. Barcha transport turlari tomonidan 751,8 mln.tn-km.ni tashkil qildi va 101,1 foizga ko'paydi.

Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari bo'yicha

	2018 yil yanvar-sentabr	2017 yil yanvar-sentabrga nisbatan foiz hisobida
Tashilgan yuk, mln. tn	32,9	102,5
<i>shu jumladan:</i>		
avtomobil transportida	32,9	102,5
Yuk aylanmasi, mln. tn-km	751,8	101,1
<i>shu jumladan:</i>		
avtomobil transportida	751,8	101,1

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transporti yuk aylanmasi 2017 yil yanvar-sentyabrga nisbatan 102,4 foizga ko'paydi va 609,9 mln. tn-km.ni tashkil qildi. Yuk aylanmasining umumiy hajmida xususiy yuk tashuvchilarning ulushi 81,1 foizni tashkil qildi (2017 yil yanvar-sentyabrda 80,1 %).

Yo'lovchi tashish. 2018 yil yanvar-sentyabrda barcha transport turlari tomonidan 337,0 mln. kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,0 foizga teng bo'ldi. Yo'lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 102,2 foizga ko'payib, 10751,0 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil qildi.

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi

	2018 yil yanvar-sentabr	2017 yil yanvar-sentabrga nisbatan foiz hisobida
Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln. kishi	337,0	100,0
shu jumladan, avtomobil transportida	337,0	100,0
Yo'lovchi aylanmasi, mln. yo'lovchi-km	10751,0	102,2
shu jumladan, avtomobil transportida	10751,0	102,2

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning yo'lovchi tashuvchi avtomobil transportida yo'lovchi aylanmasi 2017 yil yanvar-sentyabrga nisbatan 102,7 foizga ko'paydi va 10084,1 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil qildi.

Yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida xususiy yo'lovchi tashuvchilarning ulushi 93,8 foizni (2017 yil yanvar-sentyabrda 93,3 %) tashkil qildi.

Yuk va yo'lovchi aylanmasining yanvar-sentabr oylaridagi umumiy hajmi

